

# “Mahallada duv-duv gap” shiori ostidagi tadbirning navbatdagisi bugun poytaxtimizning Yakkasaroy tumani mahallalari aholisi uchun tashkil etildi



Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tashkil etilgan “Mahallada duv-duv gap” shiori ostidagi tadbirning navbatdagisi bugun poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi “Boshliq”, “Armug‘on” mahallalari aholisi uchun tashkil etildi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan o'tkazilgan ushbu keng qamrovli madaniy-ma'rifiy kechada institutning "O'zbekiston xalq hofizi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist" "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" singari faxriy unvonlar sohiblari, "Nihol" mukofoti sovrindorlari, professor-o'qituvchilar, talabalar tomonidan maqom yo'nalishidagi qo'shiqlar, sho'x ashulalar aytildi, she'rlar o'qildi.





Turli millat vakillari jam bo'lgan zalda estrada xonandalari tomonidan o'zbek, rus tillaridagi qo'shiqlar ijro qilindi. Davraga yanada xursandchilik, fayz bag'ishlash maqsadida talabalar tomonidan kuy, ohanglarga monand raqslar taqdim etildi.



Har bir san'atkorning chiqishini ishtirokchilar o'zlarining gulduros qarsaklari, sho'x o'yinlari bilan qo'llab turishdi. Keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy tadbirda institut professor-o'qituvchilari tomonidan vatan haqidagi she'rlar o





Talabamiz tomonidan xalq suygan tsan'atkorlarning ovozlari taqlidlar qilindi va bu mahalla ahli tomonidan katta xursandchilik bilan kutib olindi.



Shu kabi madaniy-ma'rifiy tadbirlarni noyabr, dekabr oylarida poytaxtimizning barcha mahallalarida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

**Matbuot kotibi**